



**“DEVONU LUG’OTIT TURK” TARKIBIDAGI PARCHALARING MATNIY
TADQIQI: TIZIMLASHTIRISH NATIJALARI
(ABDURAUF FITRATNING “ENG ESKI TURK ADABIYOTI
NAMUNALARIMAJMUASI ASOSIDA)”**

Yusuf Avji

Filologiya fanlari doktori, professor

Orzigel Hamroyeva Jalolovna

Filologiya fanlari doktori, professor.v.b

Annotasiya. Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asari tarkibidagi nazmiy parchalar xalq og’zaki ijodi va qadimgi yozma manbalar va ularning poetik va janriy xususiyati, til imkoniyatlarini o’zida to’liq namoyon qila olgan adabiy parchalar bo’lgani bois asar tarkibidagi nazmiy parchalar tadqiqi muhim ahamiyatga ega. Bu borada Abdurauf Fitratning tadqiqotlari muhim ahamiyaga ega. Maqolada Abdurauf Fitratning “Devonu lug’otit turk” asari tarkibidagi nazmiy parchalarining tadqiqiga bag’ishlangan “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asari va uning tarkibiy qismi, olimning tasniflash tamoyili xususida fikr yurtildi.

Kalit so’zlar. Tasnif, murabba’, ikkilik, qofiya, mavzu, maqola, to’rtlik.

Kirish. Turkiy adabiyotning asos manbalaridan biri Mahmud Koshg’ariyning “Divânü Lügâti-t-Türk” asari va uning tadqiqi borasida XX asr boshlarida yaratilgan tadqiqotlarning o’z o’rnini bor. Ayni davrda yaratilgan asar tadqiqiga bag’ishlangan turk, o’zbek, tatar tilidagi ilmiy maqola, kichik risolalardagi ilmiy tahlil va tasniflar hali hanuz bugungi un tadqiqotlari uchun muhim manba sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Abdurauf Fitratning “Devonu lug’otit turk” asari tadqiqiga bag’ishlangan “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asari tarkibidagi “Devon” tarkibidagi nazmiy parchalar tasnifi bugungi kun adabiyotshunosligidagi mukammal tasniflardan sanaladi.

Asosiy qism. “Devonu lug’otit turk” asari Fitratga qadar bir necha marotaba o’rganilgani haqida J.Xudoyberdiev “Devonu lug’otit turk”: topilishi, tarjimalari va o’rganilishi” maqolasida batafsil to’xtalib o’tgan¹. Fitrat “Devonu lug’otit turk” asarining qachon va qaerda topilgani haqidagi dastlabki ma’lumotni asarning birinchi noshiri va ilk tarjimonni Rifat Kilislining “Yangi tong” gazetasida e’lon qilingan maqolasi orqali bayon qilgan².

Turkiyada Yusuf Avji Fitratning Turkchilik masalasini o’rgangan,³ A. Choshar va B. Gunesh esa “Devonu lug’otit turk” hamda Qashqariy Mahmud haqida Turkiyada chop etilgan 160 maqolaning qisqacha annotatsiyalarini o’z ichiga olgan va mualliflarning ismlariga ko’ra alifbo tartibida joylashtirilgan sharhli bibliografiyani taqdim etgan.⁴

Kilisli Rifat “Devonu lug’otit turk”ni nashrga tayyorlashda, Basim Atalay tarjima qilishda⁵ matndagi ayrim chalkash o’rinlarni tuzatishga harakat qilganlar.

O’zR FASHIda “Devonu lug’otit turk” asarining bir qancha toshbosma nusxalari mavjud bo’lib, matbaa va nashr ishlari endi shakllana boshlayotgan bir davrda o’zbek olimlarining “Devon”ni chuqurroq o’rganishlariga zamin yaratgan. Toshbosmalarning aksariyati Istanbul nashri bo’lib, Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasidagi parchalarni ayni shu

¹ Xudoyberdiev. J. “Devonu lug’otit turk”: topilishi, tarjimalari va o’rganilishi // Turkologiya masalalari. 1-sod, 2007.

² Besim Atalay. Divanü Lügat-it-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-it-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. S. XVIII; Fazilov E. Kaşgarlı Mahmut’un «Divanü Lugâti-t-Türk» eserinin Almanca, Türkçe, Özbekçe, Uygurca, İngilizce, Farsça, Kazakça, Çince, Azarice ve Rusça Tercümelerinin Karşılaştırmalı Üzerinde / Turcologica III. – Tashkent: Vektor-Press, 2010. C.417-421.

³ Yusuf, Avcı (1997). Fitrat’ın Türkçeciliği. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, (3).

⁴ Coşar, A., & Güneş, B. (2011). Açıklamalı Bir Kaynakça Denemesi: Divanü Lugâti-t-Türk Ve Kaşgarlı Mahmud Üzerine Yazılan Makaleler. *Türkiyat Mecmuası*, 21(1), 167-231.

⁵ Atalay B. Divanu lugatit turk tercimesi. 1-3 cild. Ankara / 1939-1941.



toshbosmalarga asoslanib taqdim qilgan. Inventar raqami 5201-3 bo'lgan, 1914 –1916-yillarda nashr qilingan, 1106 sahifadan iborat toshbosma, 5206-3, 5204-5, 14345-47, 8999, 9000, 5206-8 inventar raqamli toshbosmalar, 20927 inventar raqamli hijriy 1333 yilda nashr qilingan, 20929 inventar raqamli hijriy 1335 yilda nashr qilingan litografiyalar Fitrat kabi olimlarni mumtoz namunalarni kitobxonga etkazishga ilhomlantirgan. Shu o'rinda dastlab "Devon" haqidagi tadqiqotlar tarixini o'rganishda muhim bo'lgan muallifi noma'lum bir asar xususida to'xtalib o'tish lozim. Bu asarning mavjudligi haqda ilk bora J.Xudoyberdiyev maqolasida ma'lumot bergan edi. Kuzatishimizcha, O'zR FASHIning Qo'lyozmalar fondida 5046/1 inventar raqamli "Devonu lug'ot" so'zları uchun fihrist" sarlavhasi ostida bir qo'lyozma saqlanadi. Har bir so'z qaysi jildda, sahifada ekanligi ko'rsatilgan. Arabcha nashrning bиринчи jildidagi so'zlar daftarning 1–57, ikkinchi jilddagi so'zlar 59–62, 74–83 sahifalarda, uchinchi jilddagi so'zlar esa 62 –66, 83 sahifalardan keyingi betlarda berilgan⁶. "Devon" tadqiqotchilaridan H.Hasanovning fikricha, bu ko'rsatkich 1924–1925 yillarda tuzilgan. Agar shu sana ilmda e'tirof etiladigan bo'lsa, bu qo'lyozma adabiyotshunoslikda "Devon" bo'yicha tuzilgan dastlabki indeks-lug'at hisoblanadi. Qo'lyozma 3 ta yirik asarni o'z tarkibiga olgan, 190 sahifadan iborat matn ichida berilgan. Qo'lyozmadagi keyingi ikki asar Alisher Navoiyning "Vaqfiya" hamda "Munshaot" asarlari bo'lib, bir-biridan farqli siyohlarda ko'chirilgan. Tadqiqotchi A.Nosirov qo'lyozmaning so'nggi qismida "Devonu lug'ot" so'zları uchun fihrist"ni o'rtoq Hanif 1963 yilda nashr qildirganini keltirib o'tgan. Olim bu lug'at Fitrat tomonidan tuzilgan deb taxmin qiladi, biroq noshir bu haqda hech qanday ma'lumot bermaganini keltirib o'tadi. Qo'lyozmaning 119-sahifasiga qadar qismi "Devonu lug'ot" so'zları uchun fihrist" asari bo'lib, lug'at "Divânü Lügâti't-Türk"ning har uch jildi uchun tuzilgan so'zliklardan iborat. Lug'atdagi so'zlar alifbo tartibida keltirilgan bo'lib, so'zlar "Devon..."ning nechanchi jild va qaysi sahifada ishlatalgani alohida qayd etib borilgan. Lug'atdagi tartib 1-, so'ng 2- va 3-jildda ishlatalgan so'zlardan iborat. Qo'lyozma oq muqova bilan qayta ta'mirlangan. "Vaqfiya" hamda "Munshaot" asarlari ko'chirilgan sahifalarning qo'lyozmaga biriktirilgani sezilib turadi. "Devonu lug'ot" so'zları uchun fihrist" asari ikki xil siyohda: asarning boshlang'ich qismidan tortib "lom" harfigacha bo'lgan sahifalar qora siyohda, keyingi sahifalardagi lug'at so'zlar to'q pushti siyohda ko'chirilgan. Sahifa ikki qismga ajratilib, so'zlar ustun shaklida nechanchi sahifada keltirilganlik raqami bilan tartiblangan. Hatto bir sahifaning o'zida bir necha marotaba ishlatalgan so'zlar ham alohida-alohida ko'chirilgan.

Kub [kub] كُب 85
 Kib [kib] كِب 85
 Kib [kib] كِب 85
 Kuj [kuj] كُج 86
 Kuj [kuj] كُج 86
 Kuj [kuj] كُج 86
 Kij [kij] كِج 86

Lug'atda so'zlarning ma'nosi keltirilmagan, ular shunchaki sanab o'tilgan, xolos. Qo'lyozma o'zbekcha nastaliq xatida ko'chirilgan bo'lib, qo'lyozmaning ba'zi o'rinalarida bo'sh sahifalar keltirilgan. Ana shunday sahifalarda lotin yozuvida "fitrat" so'zining yozilishi mashq qilingan. Bu esa ushbu lug'atning lotin yozuvi qabul qilinish arafasida tuzilgan, degan taxminni keltirib chiqaradi. Lug'at be harfidagi so'zlarni keltirish bilan boshlanadi. بـ(Be), تـ(te), جـ(jim), خـ(xe), دـ(dol), زـ(zol), سـ(sin), شـ(shin), غـ(g'e), قـ(qof), كـ(kof), لـ(lom), مـ(mim), هـ(hoye havvaz), أـ(alif), يـ(yo) kabi harflar tartibida keltirilgan. Har bir harf alohida ajratilib, boshlanuvchi so'zlar avval 1-, so'ng 2- va 3-jillarda ishlatalishiga qarab taqsimlangan. Lug'at:

⁷ بـ(Be), تـ(te), جـ(jim), خـ(xe), دـ(dol), زـ(zol), سـ(sin), شـ(shin), غـ(g'e), قـ(qof), كـ(kof), لـ(lom), مـ(mim), هـ(hoye havvaz), أـ(alif), يـ(yo)

⁶ Lug'atdagi so'zlar arab alifbosi asosidagi taqsimlangan. Bir harf bilan boshlanuvchi so'zlarning uchala jilddagi ishlatalgan o'rinalari keltirilib, keyin keyingi harfga o'tilgan.

⁷ Bugungi alifbo va transkripsiya shakli qo'shildi. Lug'atdagi so'zlar faqat arab yozuvi va betlardan iborat shaklda berilgan.



- Bat [bät] بَتْ 26
 Bit [bit] بِتْ - 269
 Bir [bir] بِرْ - 271
 Bis [bis] بِسْ - 275
 Biz [biz] بِزْ - 273
 Bush haliq [buş haliq] بُشْ حَلْقَ 277
 Bush [buş] بُشْ 277
 Bakxank [bakxank] بَكْخَانْكَ 277
 Buk [buk] بُكْ 279
 Buk [buk] بُكْ 279
 Bul ot [böl āt] بُل ات - 281
 Ban [bän] بَنْ 283
 Bart [bart] بَرْت 286
 Bart [bart] بَرْت 286
 Burt tutti [bürt tötti] بُرْت تُتْتِي 286

tarzida boshlangan. Qora siyohda ko'chirilgan so'zlarga to'q pushti siyohda ba'zi o'rirlarda qo'shimchalar kiritilgan. Ba'zi so'zlarning usti o'chirilgan, tuzatilgan. 2-jildda ishlatilgan *be* harfi bilan boshlanuvchi so'zlarga ushbu qo'shimchalar kiritilgan:

- Biltindi [biltindi] بِلْتِينْدِي 202
 Bilmindi [bilmindi] بِلْمِنْدِي 208
 Burqimoq [bürkimāq] بُرْقِمَاقْ 272
 Bilkazmoq [bilkazmāq] بِلْكَزْمَاقْ 274
 Bo'ynatmoq [bθynatmāq] بُونَتْمَاقْ 287
 Buzmunhuq [büzmunhuq] بُزْمُنْخُقْ 287

Bu kabi qo'shimchalar kiritish holati juda ko'p uchraydi. ت (te), harfiga oid so'zlar keltirilgan o'rirlarda qo'yidagi so'zlar qo'shimcha tarzda alohida ustunda kiritilgan:

- Talimsandi [talimsandi] تَلِيمْسَنْدِي - 206
 Turumsandi [turumsandi] تُرْمَسْنِدِي
 Tilimsindi [tilimsandi] تِلِيمْسَنْدِي 208
 Tuzg'urumsindi [tuzg'urumsandi] تُزْغُرْمَسْنِدِي 209
 Titru [titru] تِتْرِي 235
 Tasg'anmoq [tasg'anmāq] تَسْغَنْمَاقْ 272
 Tilqatmoq [tilqatmāq] تِلْقَاتْمَاقْ

Lug'atning ba'zi o'rirlarida esa so'zlar qalamda o'chirilgan.

- Natak [natak] نَتَكْ 287
 Najuk [najuk] نَجُوكْ 329
 Nalun [nalun] نَلُونْ 329
 Narak [narak]- نَرَكْ - 329

Mim harfi bilan boshlanuvchi so'zlar keltirilgan o'rirlarda sahifa 4 ustunga bo'lingan va juda qisqa masofalarda so'zlar joylashtirilgan.

Lug'atda so'zlar jildlar asosida tartib bilan taqsimlanish bilan birga, ularning joylashishida turkumlari ham e'tiborga olingan. Avval ot, sifat, ravish, olmosh turkumiga mansub so'zlar keltirilsa, keyin fe'lga oid so'zlar joylashtirilgan.

- Mom [mäm] مَامْ 83
 Mam [mam] مَمْ 84
 Mun [mun] مُونْ 102
 Manqishlarig' [manqışlarig'] منقشلارغ 18
 Manyashlig' qo'y [manyaslıg'] منيشلاغ قوي 118
 Mayaq [mayaq] مِيقْ 125.....



- minkar [minkar]* منکر 278
mankku [mankku] منکو 280
munklug' or [munklug 'ar] منکلوج ار 283
munkiz kak [munkiz kak] منکز کاک 287
munkmak [munkmak] منکمک 290
munkuqmoq [munkuqmāq] منکو قماق 292
munkqarmoq [munkqarmāq] منکر ماق 294
mankdashmak [mankdaşmak] منکدشماق 295
mankashmak [mankaşmak] منکشماق 295

tarzida keltiriladi. Bu tartib lug'atning oxiriga qadar saqlangan.

Lug'at tarkibidagi so'zlarning joylashishi, ishlatilishi, tanlanishi uslubi lug'at Fitrat tomonidan tuzilganligidan dalolat beradi. Bu holat "Eng eski turk adabiyoti namunalari" asarining lug'at qismini ushbu qo'lyozma bilan solishtirganimizda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Fitrat "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasini 3 qismga ajratgan bo'lib, majmuuning 3-qismi maxsus lug'atdan iborat. Fitrat lug'at qismida keltirilgan so'zlarni "Devonu lug'otit turk" bilan yaqin davrlarda yaratilgan "Qutudg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq" kabi asarlardagi variantdoshlari misolida "Muqadimmat ul-adab" kabi lug'atlardan foydalangan holda ma'nosini izohlashga harakat qilgan. Ahmad Yughakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari nashrini amalga oshirgan Najib Osim yo'l qo'ygan xatoliklarni "Devonu lug'otit turk" asari tarkibidagi so'zlar misolida isbotlagan. "Savamoq – Tamom bo'lmoq, sob bo'lmak. Bitmak. Buning tomuri "savdirkim: masal, hikoyat, so'z, xabar ma'nolaridadir. Xabar, so'z, hikoyatning tarqalib turishi munosabati bilan bo'lsa kerak, "tarqalib bitmak" ma'nolarida savrulmoq, savramoq; "bitirmak" ma'nosida savritmoq so'zleri bo'lg'an kabi

Balak ettim ani shahmg'a manunk
Havodorlig'imni tugal bilsutib (bilsun deb)

("Hibat ul-haqoyiq" birinchi qism, 30 nchi bet)

Bundagi "balak" so'zini Najib Osimbek "alomat, nishon" deb tarjima qiladir, yanglishadur. "Tarqalmoq" ma'nosida *savrulmoq* so'zi bordir. Bukun bizda bo'lg'an "savirmoq" ham "sovchi" so'zi-da shu tomirdandir⁸.

Majmuuning lug'at qismida 126 ta so'z keltirilgan bo'lib, olim har bir so'zning etimologiyasini keltirish bilan birga ayni shu so'zlar qo'llangan misralardan namunalar ham keltiradi. Ba'zi o'rnlarda so'zlarning morfem tahlilini ham amalga oshiradi. "Kislinmak – kis+il+in+mak. O'z-o'zidan kesilmak".⁹ Majmuadagi "Lug'at" qism izohli lug'at shaklida bo'lib, so'zlarning ma'nosini ochib berishga xizmat qilgan. "Devon" so'zleri uchun fihrist" lug'at esa indeks lug'at shaklida bo'lib, "Devon"da ishlatilgan so'zlar keltirilgan, xolos. Fitrat "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasini tuzgandan so'ng "Devonu lug'otit turk" asari uchun maxsus fihrist tuzishni maqsad qilgan. So'zlarning o'qilishi, yozilishi, ayniqsa, fe'l so'z turkumiga oid so'zlarning keltirilish uslubi, -mak va -moq qo'shimchalarining so'zlarning o'zagiga qarab taqsimlanishi Fitratning ishlash uslubini eslatadi. Undan tashqari, "Eng eski turk adabiyoti namunalari" asaridagi lug'at qismidagi so'zlarning tartibi "Devonu lug'ot" so'zleri uchun fihrist"dagи tartibga mos tushadi. Fitrat "Eng eski turk adabiyoti namunalari" asarida barcha so'zlarni keltirmay, ularning ba'zilarinigina saralab olgan. "Devonu lug'ot" so'zleri uchun fihrist"da esa 8 mingtacha so'z keltirilgan. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, "Devon" so'zleri uchun fihrist" Fitrat tomonidan 1928–1929 yillar oralig'ida, lotin yozuviga o'tish arafasida, "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasi yaratilganidan so'ng tuzilgan. Bu lug'at olimning jiddiy tadqiqotlaridan biri bo'lib, "Devonu lug'otit turk" tarkibidagi parchalar davri, so'zlarning etimologiyasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

⁸ Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. (Nashrga tayyorlovchi Hamroeva O) – T.: MUMTOZ SO'Z, 2008. – B. 108.

⁹ Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – B.111.



“Devonu lug’otit turk” Fitratgacha bo’lgan davrlarda juda ko’p olimlar tomonidan o’rganildi. Har bir olim asarning turli jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Asardagi manzum parchalarni adabiy jihatdan tasnif qilishga urinish XX asrning boshlariga to’g’ri keladi. Turk olimlari B.Atalay, Najib Osimbek¹⁰, Fuod Ko’pruluzoda¹¹, xorijiy tadqiqotchilar Radlov¹², Brokelmann¹³ maqolalarida bu holatni kuzatamiz. O’zbek olimlari orasida bu ishga birinchilardan bo’lib yondashgan va hozirga qadar o’z ilmiy ahamiyatini yo’qotmagan bu tasnif Fitratga tegishlidir.

Fitrat Koshg’ariyning asariga baho berar ekan, uning turk, turkman, o’g’uz, chigil, yag’mo va qirg’iz tillaridagi so’zlar, ularning qofiyalari, izohlari, xalq adabiyotlari, shevalarini yaxshi o’rganganligini ta’kidlaydi. “Eng eski turk adabiyoti namunalari” qatiga jamlangan parchalar “Devonu lug’otit turk” asaridan olingan. Biroq shuni e’tiborga olish kerakki, ushbu parchalar Fitrat tomonidan tartib etilib, bir tizimga solingan. “Devonu lug’otit turk” asarida majmuaga kiritilgan parchalar ma’lum bir so’zning izohlanishi jarayonida uchraydi. Prof. Fitrat she’riy namunalarni ularning bir necha xususiyatiga ko’ra tasniflagan:

1. Matnni nasriy bayon qilish;
2. Mavzu jihatidan tasnif;
3. Mavzularni mazmuniy asosda guruhash;
4. Matnning muayyan adabiy tur va janrga munosabatini aniqlash;
5. Vazn xususiyatlarini aniqlash;
6. Majmua musannifi sifatida o’z tabdilini taqdim etish.

Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarining birinchi qismida parchalarni yuqorida ta’kidlangan xususiyatlarga ko’ra o’zaro 14 sarlavha ostida birlashtirgan. Ushbu qismda Fitrat Fuad Ko’prulu bilan “Alb Erto’nga” marsiyasi borasida bahsga kirishadi. Fuad Ko’prulu o’zining “Turk adabiyotining manshai” maqolasida Alb Erto’nga mavzusidagi to’rtlikni o’zaro mazmun jihatidan bog’lab, to’rt marsiyaga ajratgan edi. Fitrat esa bu manzumalardan to’rt marsiya emas, balki ikki marsiyani tashkil etishini isbotlaydi. Qolgan ikki marsiya haqida “qolgan iki marsiyag’a boshqa unvon berish kerak” degan xulosaga keladi. Keyinchalik “Devonu lug’otit turk” tarkibidagi manzum parchalar matni I.V.Steblova tomonidan tadqiqga tortilgan. I.V.Steblova B.Atalay tarjimasi, S.Mutallibov nashriga tayanib she’riy parchalar va tiklangan doston namunalari haqida so’z yuritadi¹⁴. Fitrat “Devon”dan olingan parchalarni ikki qismga ajratar ekan, birinchi qismi to’rtliklardan iborat. Undagi asarlar qisqa vaznda aytilgan. Ushbu parchalar tasvirni ifoda etayotgani bois ham tasviriy parchalar deb olganligini aytadi. Birinchi qismdagи parchalar Fitrat tomonidan quyidagi sarlavhalar ostida birlashtirilgan: 1.Yoz-Qish munozarasi; 2. Bir urush maydoni haqida; 3. YOz o’yinlari; 4. Ovdan urushga; 5. Tog’ush begining urushi; 6. Uyg’urlar bilan urush; 7. Ikki savdogar orasida; 8. Ayriliq (hijron); 9. Sevgiga oid parchalar; 10. Uch urush (besh parcha); 11. Bir urush; 12. Doston boshlang’ichi (olti parcha); 13. Bir marsiya (uch parcha). Parchalar ham shakl, ham mazmun jihatidan o’zaro moslashtirilib, sarlavha ostida birlashtirilgan. Majmuuning birinchi qismiga mazmun va mavzu jihatidan birlashtirilgan b-b-b-a tarzida qofiyalangan to’rtliklar jamlangan.

*Qor, buz qamug’ arushdi,
Tag’lar suvi aqishdi,
Ko’kshin bulit urushdi,
Qayg’uq bo’lub o’krushur. (J.1, B.162)*

¹ Mahmud al-Husayn binni Muhammad al-Koshg’ariy: kitobi Devonu lug’atit turk (O’ngso’z). – Istanbul, 1933. (arab yozuvida)

² Kuprulu F. Turk adabiyotining manshai // Milliy tatabbular majmuasi. 2-jild, 4-son. – B.71.

³ Radloff W. Phonetik der nordischen turk sprechen/ Leipzig. -1882. – Pp. 8–19.

⁴ Brokelmann.C. Mahmud al-Kasghari über die Sprachen und die Stamme der Turken in XI Jahrh (Korosi Csama – Archivum.) 1921. – S 29, 37–39.

¹⁴ Stebleva I.V. Razvitie tyurkskich poeticheskikh form XI veke. – M., 1971.



*Butun qorlar, muzlar eridilar
Tog'larda suvlar oqa boshladilar
Havoda ko'kchil bulutlar paydo bo'lub
Har tomonda qayiq kabi yurmakdalar
Ushbu to'rtlik keltirilganidan so'ng, keyingi to'rtlik ham go'yo uning mazmunini kuchaytirayotgandek tuyuladi.*

*O'rди bulit inkrashu (ingrashu),
Oqtı aqin munkrashu (mungrashu),
Qoldi budun tanglashu (tang'lashu),
Ko'krak taqin mangrashur (mangrashur).*

*Bulut ingrab ko'rundi,
Oqin nola qilib oqti,
El-ulus hayron qoldi,
Bulutlar bir na'ra chekib, bir mangrab yurmoqdalar!*

Asarning ikkinchi qismi ikkiliklardan iborat bo'lib, ta'limiyl-axloqiy mazmundagi mavzular quyidagi sarlavhalar ostida birlashtirilgan: 1. Nasihat; 2. Mehmon tutish to'g'risida; 3. Tarbiya to'g'risida; 4. Bir go'zal to'g'risida; 5. E'tiqodiy bir parcha; 6. O'g'limga nasihat; 7. Dunyodan shikoyat; 8. Sevgan bir kishi uchun; 9. Boylikni maqtaydi; 10. O'git; 11. Maqtanish; 12. Boylik to'g'risida; 13. Aldangan bir kishiga; 14. Ayrilish; 15. Diniy nasihat; 16. Mehmon to'g'risida; 17. Rohat to'g'risida. Bu qismdagi ba'zi bir ikkiliklar hajm jihatidan katta, ba'zi birlari esa faqatgina bir masnaviyining bir bandidan iborat, xolos. Olim manzumalarni tasnif qilar ekan, ularning qaysi davrga oid ekanligi haqida ham ma'lumotlar berib o'tadi. Fitrat parchalarni tasniflar ekan, parchalar matnining nasriy bayoni va tushunilishi qiyin so'zlarning etimologik tahlilini keltiradi. Matn tarkibidagi har bir so'zning ma'no tadriji alohida e'tibor qilgan holda mazmunni belgilaydi. "Mumtoz adabiy manba ilmiy nashrining ishonchli va har tomonlama mukammalligini dastlab manba dunyoga kelgan davrdan to so'nggi nashrgacha davom etgan matn tarixini tiklash belgilaydi".¹⁵ Fitrat "tikdag" so'zining ma'nosini aniqlashda bu so'zning asli "tildag" ekani, "Devonu lug'otit turk"ning 1-jildi 385-betida "bahona" ma'nosida ayni shu so'z ishlataliganini e'tirof etadi. Olim turkiy tillarning fonetik xususiyatidan kelib chiqib bir so'zda "k" va "g" undoshining ishtirot etmasligini nazariy asoslab bu so'z aslida o'sha "bahona" ma'nosidagi "tildag" so'zi ekanligini aniqlaydi:

*O'krayuku mundag' o'q
Munda azin tikdag' o'q...*

Nasriy bayoni:

*Uning (zamonaning) odati shundaydir
Boshqa bahonalari bor...*

deb ma'no bergen olim mazmuniy yaxlitlikni ta'minlab bergen. Fitrat so'z etimologiyasi, ma'no tadrijini aniqlashda "Devonu lug'otit turk"ning barcha jildlaridagi ishlatalish o'rinalariga e'tibor qaratadi.

*"Takma chechak ukului,
Bo'qoqlanub bukuldi,
To'ksin to'kun tukului,
Yorg'alimat yurkashur.*

Yorg'alimat – yor+g'ali+mat. Yormoq uchun qanday..., biroq "yormoq" fe'lining bu o'rinda munosib ma'nosini yo'qdir. "Devonu lug'ot"ning ikkinchi jild 228-betida shul to'rtlik yana yozilg'an. Unda "yorg'alimat" o'rnida "yozilib yana" deyilgankim, "ochilib yana" demakdir. Shunga ko'ra

¹⁵ Zohidov R. "Sabotul ojizin" asarining manbalari, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnnini kompleks o'rganish muammolari; Fil.fan.d-ri ... diss. – T., 2018. – B.11.



buni ham “yozg’alimat - yoz +g’ali + mat” deb o’qish lozim bo’ladi”.¹⁶ Fitrat parchalar matni ustida tadqiqot olib borar ekan, ba’zi o’rinlarda asar muallifi M.Koshg’ariy bilan bahsga kirishadi.

*Qara tunuk kajursadim,
Ag’ir uni uchursadim,
Yatikank qochursadim,
Saqish ichra kunum tug’di.*¹⁷

to’rtligidagi “saqish” so’ziga Koshg’ariy “sanamoq” deb ma’no bergen, Fitrat esa bu so’zning “Devonu lug’otit turk”da “xayollamoq” ma’nosidagi “soqimoq” fe’l shakli borligini ko’rsatib, oxirgi misraga “xayollar orasida ekanimda kun tug’ib qoldi” deb ma’no chiqargan.

*Uzu berib bushuttim,
Tovar, yullug’ nashuttim,
Aran assin oshuttim,
Yukin barja o’zi jig’di.*

to’rtligining 3-misrasi Mahmud Koshg’ariy tomonidan “Boturlarning aybini yoshintirdim” shaklida nasriy bayon qilinadi. Biroq Fitrat “as” so’zi “Devonu lug’otit turk”ning 1-jildining 39-76-sahifalarida “o’laksa” ma’nosida kelganini asos qilib, Mahmud Koshg’ariy bergen “uyat, yomonlik” ma’nosini yanglish deb topib, “oshuttim”ni “oshattdim” o’qub, bu misrani “urushda o’lgan boturlarning o’luklarini edirdim” deb tarjima qillardim”¹⁸ deb izoh beradi. Bu kabi so’zlarning izohi majmuada juda ko’pchilikni tashkil etib, 700 dan ortiq so’zlar izohlanganini, tadqiqa tortilganini ko’rish mumkin.

“Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasining 3-qismi izohga muhtoj so’zlarning sharhiga bag’ishlangan lug’at qism bo’lib, olim bu qismda 130 ga so’zning izohini keltirgan. Qismning so’zboshisida bir qancha so’zlarning izohga muhtojligini, ularni matn ichida, o’z o’rnida izoh qilish maqsaddan uzoqlashtirishini, shuning uchun maxsus lug’at qismi tuzilganligi ta’kidlangan. Lug’at qismdagagi so’zlar etimologiyasini o’rganar ekan, ma’noviy tadrijiga e’tibor qaratgan holda “Devonu lug’otit turk”, “Qutadg’u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Muqaddimat ul-adab”, 18-asrda yozilgan “Asmoil Og’a sayohatnomasi” kabi asarlar, “Abushqa”, “Lug’ati chig’atoy” lug’atlaridagi ko’rinishlarini ham tahlilga tortadi. “Asiz – bizning bukun “esiz” deganimiz so’zdir. “Devonu lug’ot”ning ko’rsatkaniga ko’ra “yomon” demakdir. “Qutadg’u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”da ham har vaqt “ezgu” so’ziga qarshu ishlatiladur”.¹⁹ Olim lug’atning bir o’rnida “ukrimak” so’ziga izoh berarkan, bu so’zning chig’atoy o’zbekchasi “ukurmak” bo’lib, “harakat etdirmak” degan ma’noni anglatishini ta’kidlab, Amiriyning mashhur baytini namuna sifatida keltiradi.

*Lab ukur takallumga zulfini parishon qil,
Qand qiymatin sindir, narxi anbar arzon qil.*²⁰

Bayt mazmuniga diqqat qilinadigan bo’lsa, “lab takallum (kalom) qilish uchun harakatga kelishi” ma’nosini anglash mumkin.

Fitrat lug’atning ko’p o’rinlarida N.Osimbek bilan munozaraga kirishadi. N.Osimbek “Hibat ul-haqoyiq” asarini nashr qildirgan bo’lib, bu nashrdan Fitratning ko’ngli to’limgan. Nashrdagi so’zlarning o’qilishi va izohidagi bir qancha xatoliklarni, kamchiliklarni ko’rsatib o’tgan. “Ayiq” so’zi izohlanar ekan, N.Osimbek bu so’zga “aylamak, qilmoq” degan ma’no beradi. Fitrat esa bu so’zning bosh tomiri “aymoq” ekanligini, “aytmoq” degan ma’noni anglatishini isbotlab beradi.²¹

¹⁶ Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – B. 28.

¹⁷ Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – B. 44.

¹⁸ Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – B. 48.

¹⁹ Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – B. 101.

²⁰ Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – B. 103.

²¹ Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – B. 103.



Fitrat o'z asarida "Alb Erto'nga" marsiyasiga keng to'xtalib o'tadi. Bu borada olimlar bilan bahsga ham kirishadi. "Devonu lug'otit turk" dagi manzumalarni o'rgangan olim F.Ko'prulu "Alb Erto'nga" marsiyasini 12 parcha deb e'tirof etadi. Fitrat esa bu fikrga qo'shilmaydi: "... "Alb Erto'nga" marsiyasini F.Ko'pruluzoda o'n iki parcha deb ko'rsatadir. Menimcha, o'n parchadir. Devonni(ng) ikinchi jild, 105inchi betidagi bir parchani esa Erto'nga marsiyasig'a qo'shushg'a vazn va qofiya, mavzu' musoada qilmaydir. Birinchi jildning 94inchi betidagi bilan uchunchi jildning 31inchi betidagi parchalar boshqa-boshqadir."²² Va fikrini dalillash maqsadida quyidagi to'rtlikni keltirib o'tadi:

*Yugurdi kafal ot,
Chaqildi qizil o't,
Kuyurdi arut o't,
Sachrab aning o'rtanu.*

Fitrat "Alb Erto'nga" marsiyasiga yaxlit asar sifatida yondashar ekan, Alb Erto'nga shaxsiyatiga qiziqadi, "Alb Erto'nga" so'zining ma'nolarini keltiradi va marsyaning yaratilish sabablarini izohlaydi.

Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinganda, Y. Avcining "Turk adabiyotining eng qadimgi namunalari" nomli kitobida "Devonu lug'otit turk" dagi nazmiy parchalarni tadqiq etadi. Ushbu tadqiqotda Abdurrauf Fitratning "Eng eski turk adabiyoti namunalari" nomli asari hamda Turkiyada nashr etilgan "Devonu lug'otit turk" dagi nazmiy parchalar qiyosiy o'rganilgan. Talat Tekinning XI asr turk she'riyati nomli tadqiqoti hamda Besim Atalayning "Devonu lug'otit turk" ga oid tahlillari qiyosiy o'rganilgan.²³

Y. Avci tadqiqotlarida matn, qadimgi turk tilidagi nazal n (ñ) tovushining tarixiy o'zgarishi tadrijiy takomilda tadqiq etilib, "Devonu lug'otit turk" va boshqa asarlarda ushbu tovushning turli yozilish shakllari taqqoslanadi, lahja va sheva tafovutida muhim omil ekani ta'kidlanib, misollar asosida tushuntirilgan.

Xulosa. Hozirgi kunda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari qayta nashr etilgan va ilmiy dunyoda katta qiziqish uyg'otgan. Ushbu nashr A. Rustamov, H. Boltaboyev, B. Isabekov va Q. Sodiqov tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, S. Mutallibov tarjimasi asosida qayta nashrga tayyorlangan. Asarning zamонави даврға қаятарилиши, турк тили ва адабиёти нуқтai назаридан кatta ahamiyatga ega. "Devonu lug'otit turk" faqat bir lug'at bo'lib qolmay, turk tili tarixiga nur sochuvchi, turk xalqlari madaniyati xususiyatlarini aks ettiruvchi va davrning til tuzilishini ko'rsatadigan noyob manbadir. Shu sababli asarni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Tilshunoslar, adabiyotshunoslari va madaniyat tadqiqotchilar, *Divânnâgî* tarkibidagi so'zlar, maqollar, atalar so'zları va xalq madaniyatiga oid unsurlarni chuqur tahlil qilib, turk tilining tarixiy rivojlanishini yaxshiroq tushunishga harakat qilishmoqda. Bundan tashqari, "Devonu lug'otit turk" nafaqat turk dunyosi, balki jahon tilshunosligi nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Shu doirada, asarning turli jihatlari bilan o'rganilishiga qaratilgan tadqiqotlar sonining ortishi, turk tili va madaniyati bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga muhim hissa qo'shishni davom ettiradi.

Foydalananlgan Adabiyotlar:

1. Avcı, Y.(2019). Sound Development And Writing Comparisons Of Divân-I Lugat'it Turk. Route Educational and Social Science Journal, (6) 5,23-35.
2. Besim Atalay. Divanü Lügat-it-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-it-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. S. XVIII; Fazilov E. Kaşgarlı Mahmut'un «Divanü Lugat-it-Türk» eserinin Almanca, Türkçe, Özbekçe,

²² Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – B. 32.

²³ Yusuf Avci (2014). Türk Edebiyatının En Eski Örnekleri. İstanbul: Kesit Yayınları.



Uygurca, İngilizce, Farsça, Kazakça, Çince, Azarice ve Rusça Tercümlerinin Karşılaştırmalısı Üzerinde / *Turcologica III.* – Tashkent: Vektor-Press, 2010. C.417-421.

3. Atalay B. *Divanu lugatit turk* tercimesi. 1-3 cild. Ankara / 1939-1941 Yusuf, Avcı (1997). Fitrat'ın Türkçeciliği. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, (3).
4. Avcı, Y (2014). *Türk Edebiyatının En Eski Örnekleri*. İstanbul: Kesit Yayıncıları.
5. Brokelmann.C. Mahmud al-Kasghari über lie Sprachen un die Stamme der Turken in X1 Jahrh (Korosi Csama – Archivum.) 1921. – S 29, 37–39.
6. Coşar, A., & Güneş, B. (2011). Açıklamalı Bir Kaynakça Denemesi: *Divânü Lugâti't-Türk Ve Kâşgarli Mahmud Üzerine Yazılan Makaleler*. *Türkiyat Mecmuası*, 21(1), 167-231.
7. Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunaları. (Nashrga tayyorlovchi Hamroyeva O) – T.: MUMTOZ SO'Z, 2008. – B. 108.
8. Jalolovna, H. O. PIECES FROM “BOBURNOMA” IN ABDURAUF FITRAT’S COLLECTION
9. Kuprulu F. Turk adabiyotining manshai // Milliy tatabbular majmuasi. 2-jild, 4-son. – B.71.
10. Mahmud al-Husayn binni Muhammad al-Koshg'ariy: kitobi Devonu lug'atit turk (O'ngso'z). – Istanbul, 1933. (arab yozuvida)
11. Radloff W. Phonetik der nordischen turk sprechen/ Leipzig. -1882. – Pp. 8–19.
12. Seyhan, T., & Jalolovna, H. O. (2023). FITRAT-TEXTOLOGIST (Based on the complex "Examples of Uzbek literature"). Academia Science Repository, 4(5), 1083-1087.
13. Stebleva I.V. Razvitie tyurkskix poeticheskix form XI veke. – M., 1971.
14. Xudoyberdiyev. J. “Devonu lug’atit turk”: topilishi, tarjimalari va o’rganilishi // Turkologiya masalalari. 1-son, 2007.